

KURSDOSHLAR DIYDORIN ISTAYDI KO'NGIL...

Abdulxay Sobirov

Andijon davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Alisher Mamajonov

Andijon davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Valijon Niyazov

"Journal of new century innovations" nashriyot- matbaa ijodiy uyi tahriruyati a'zosi.

Millatimiz quyoshlaridan biri Alisher Navoiy ustozlarni e'zozlab: "Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmisht ranj ila, Aylamak bo'lmas ado oning haqqin ming ganj ila", – degan edi. Darhaqiqat, ustoz va muallimlik shunday bir maqomki, u har kimga ham nasib qilavermaydi, chunki xalq o'z farzandlari taqdirini, millat kelajagini ularga ishonib topshiradi. Shu ma'noda qanday shaklda bo'lmasin, ustoz va muallimlar, o'qituvchilar jamlangan davralar har vaqt fayzli, shukuhli, diltortar bo'ladi. Ana shunday anjumanlardan biri 2024-yilning 13-noyabr kuni Andijon davlat universitetida bo'lib o'tdi. Shu kuni universitetning katta majlislar zali har galgidan ko'ra tarovatga, mazmunli suhbatlarga boy bo'ldi. "Yarim asrni ortda qoldirib, 70 yoshni qarshilayotgan ustozlar ibrati" nomi bilan "Uch avlod uchrashuvi" tadbirlari dasturi doirasida universitetning (sobiq Andijon davlat pedagogika institutining tarix fakultetiga 50 yil burun – 1974-yili o'qishga kirib, 1978-yili tamomlagan kursdosh do'stlarning tarixiy uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda yarim asrdan beri bir-birlariga intilib, quvonchlariga sherik bo'lib, g'amlarida yelkadosh bo'lib Farg'ona vodiysining Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlarida yashab kelayotgan sobiq kursdoshlar, ularga saboq bergan professor-o'qituvchilar, universitet ma'muriyati, tarix fakulteti jamoasi to'plandi. Universitet rektori B.B.Akbaraliyev, Jahon tarixi kafedrasи dotsenti, t.f.n. A.Mamajonov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, tarix fanlari doktori, professor R.T.Shamsuddinov, tarix fakulteti dekani, dotsent J.Hasanov, fan doktorlari, professorlar: M.M.Saidxonov, A.Sobirov, M.Mamajonovlarning kursdoshlarga atalgan iliq so'zlari hammani to'lqinlantirdi.



Kursdosh do'stlar nomidan so'zga chiqqan iste'fodagi militsiya polkovnigi A.Kaziyev, t.f.n., dotsent Sh.Asqarov, B.Ortiqov, "Shuhrat" medali sohibalari: Z.Yuldasheva, M.Qo'ldoshevalarning talabalik yillari xotiralari nafaqat kursdoshlarni, balki anjuman ishtirokchilarining barchasiga qattiq ta'sir qildi. Yoshlar nomidan so'z olgan tarix fakulteti 4-kurs talabasi, Bobur nomidagi davlat stipendiyati M.Kamolov, 1-kurs talabasi D.Soibjonovalarning dil so'zlari hammaga ma'qul keldi.





Uchrashuvda institutning o'sha vaqtdagi rektori G'anijon Xolmatovich Abdullayev, undan keyin institutga rektorlik qilgan Akmal Qosimov, fakultet dekani Odiljon Niyozov, kafedra mudiri Isaq Po'latov, professor Bobo Yaqubov, professor Zokirjon Qutiboyev, dotsentlar: Kozimjon Qosimbekov, Sayfudin Jalilov, Sharifjon Sohibov, Habibullo Tillayev, Anvar Hakimovich Anorboyev, Axtam Ardashirov, To'raboy Avvalov, Asaddullo G'oziyev, Habibullo Ibragimov hamda shu kungacha yetib kelmagan 13 nafar kursdoshlarning nomlari ehtirom bilan tilga olindi, ularning xotirasiga iliq so'zlar aytildi.



Tadbir ishtirokchilariga A.Mamajonov va A.Kaziyevlar tomonidan yozilgan "Kursdoshlar diyordin istaydi ko'ngil..." nomli xotira kitobchasi tarqatildi. Uchrashuv davomida kursdosh do'stlar universitet binolari, "Qatag'on qurbanlari xotirasi muzeyi"ga tashrif buyurishdi.



Suhbat “Yulduz” kafesidagi dasturxon ustida qizg‘in davom etdi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga ibrat tuyg‘ularini olib kirishda, kasb egalarining bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbatini kuchaytirishda bu kabi uchrashuvlarning ahamiyati juda katta.